Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 5-dekabr, № 252 (8875) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TINCH ATOM SOHASIDA KO‘P QIRRALI HAMKORLIK YANADA KENGAYADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA) bosh direktori Rafael Grossi o‘rtasida 4-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni tubdan kengaytirish va amaliy sheriklikning yangi yo‘nalishlarini ilgari surish istiqbollari atroflicha ko‘rib chiqildi.



O‘zbekiston 1994-yildan buyon XAEA a’zosidir. Bu davr mobaynida ushbu nufuzli tashkilotning texnik ko‘magini jalb etgan holda 40 dan ortiq qo‘shma loyihalar amalga oshirildi. Hozirda milliy tuzilmalarning huquqiy bazasi va salohiyatini takomillashtirish, yadro fani, tibbiyotini rivojlantirish bo‘yicha va boshqa yo‘nalishlarda 5 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari XAEA delegatsiyasi bugun O‘zbekiston vazirliklari, idoralari va ilmiy muassasalarida o‘tkazgan uchrashuv va tadbirlarning natijalarini yuqori baholadi. Samarqand shahrida sohadagi yetakchi xorijiy ekspertlar ishtirokida bo‘lib o‘tadigan Atom energiyasidan foydalanish masalalari bo‘yicha xalqaro konferensiya birgalikda tashkil etilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Milliy agentliklarning kompetensiyalari va salohiyatini oshirish, XAEA dasturlari doirasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, yadro energetikasi, qishloq xo‘jaligi, suvdan foydalanish, sog‘liqni saqlash, ekologiya sohalarida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Uchrashuv yakunida tinch atom sohasini rivojlantirish borasida ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish yuzasidan qo‘shma “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

QASHQADARYO VILOYATI SALOHIYATI TO‘LIQ ISHGA SOLINSA, NATIJALAR YANADA YUQORI BO‘LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-dekabr kuni Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, investitsiyalarni ko‘paytirish, kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, turizm kabi barcha yetakchi sohalar bo‘yicha Qashqadaryoning salohiyati yuqori. Yil boshidan buyon viloyatda 2 milliard dollar investitsiya o‘zlashtirilgan. 565 ming nafar aholining bandligi ta’minlanib, 90 ming odam kambag‘allikdan chiqarilgan. Yil yakunigacha yalpi hududiy mahsulot 6 foizdan ziyod o‘sishi, eksport 555 million dollarga yetishi kutilmoqda.

Viloyat salohiyati to‘la ishga solinsa, natijalar bundan ancha ko‘p bo‘ladi. Yig‘ilishda shu boradagi qo‘shimcha imkoniyatlar, yangi loyihalar ko‘rib chiqildi.

Avvalo, oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ustuvor bo‘ladi. Keyingi yildan Qashqadaryo kartoshka, meva, parranda go‘shti va tuxum bo‘yicha o‘zini o‘zi to‘liq ta’minlashga o‘tadi. Bu borada xorijiy investorlar ishtirokida 16 ta yirik loyiha shakllantirilgan.

Misol uchun, G‘uzor, Qamashi, Shahrisabz tumanlarida 300 gektarda zamonaviy bog‘ barpo etiladi. Unda yiliga qo‘shimcha 4 ming tonna meva yetishtirilib, 600 ta ish o‘rni yaratiladi. Ko‘kdala, Chiroqchi, Shahrisabz, Koson va Nishon tumanlari hududida qovun va organik sabzavotlar yetishtirish kengaytiriladi. Tarvuz konsentrati tayyorlash, shok usulida muzlatish va sublimatsion quritish yo‘lga qo‘yiladi.

Viloyatda chorvachilikni rivojlantirishga alohida urg‘u beriladi. Mintaqa va Yevropa davlatlaridan 62 ming bosh qo‘y, qariyb 10 ming bosh qoramol olib kelinib, aholi va chorvachilik xo‘jaliklari bilan kooperatsiya asosida boqiladi. Qarshi va Qamashida 1 ming boshli chorvachilik klasteri, 1 million boshli parrandachilik fabrikasi tashkil etiladi.

Paxtachilikda tayyor mahsulotlar ulushini ko‘paytirish maqsadida 233 million dollarlik 5 ta to‘qimachilik korxonasi ishga tushiriladi. Natijada mato ishlab chiqarish quvvati 51 foizga ko‘tariladi.

Shahrisabzdagi Miraki va Qamashidagi Maydanak qishloqlari, Mirishkor tumanidagi “Achinko‘l” va “Sechanko‘l” atrofida turizm jadal rivojlanmoqda. Shu kabi maskanlarga 300 million dollar investitsiya kiritib, 200 dan ziyod mehmon uylari va mingta savdo shoxobchasi tashkil etish rejalashtirilgan. Ularda 5 ming kishi ishli bo‘ladi.

Tadbirkorlar viloyatdagi 147 ta noruda qazilma koni negizida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni taklif qilyapti. Bunga 209 million dollar investitsiya kiritiladi, konlar bosqichma-bosqich auksionga chiqariladi.

Prezident Farmoniga muvofiq shu yil 1-noyabrdan yurtimizda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi boshlandi. Qashqadaryodagi 6 ta yirik korxona bu xayrli ishga hissa qo‘shib, keyingi yil 10 mingdan ziyod fuqarolarni kambag‘allikdan chiqarish tashabbusini bildirgan. Bundan tashqari, banklar ishtirokida 86 ta drayver loyihani va 33 mingta mikroloyihani ishga tushirib, yana 70 ming insonni daromadli qilish ko‘zda tutilgan. Natijada viloyatda kambag‘allik darajasi hozirgi 8,6 foizdan 6,5 foizga pasayadi.

Yig‘ilishda Qashqadaryo viloyati hokimi shu kabi rejalarni taqdimot qildi. Jumladan, kelgusi yilda 3 milliard 500 million dollar investitsiya jalb qilish, eksportni 1 milliard dollarga yetkazish, 300 ming ish o‘rni yaratish mo‘ljallangan.

Davlatimiz rahbari bugungi ko‘rsatkichlar viloyat imkoniyatlariga mos emasligini ta’kidlab, natijadorlikni oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Tashabbuskorlar bilan ishlab, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasida yana 300 million dollarlik loyihalarni ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

O‘zA.

«ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTIGA A’ZO DAVLATLARNING BARQAROR RIVOJLANISHI UCHUN ATOM ENERGIYASIDAN TINCHLIK MAQSADLARIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA» MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va uni rivojlantirishning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan xalqaro anjumanning barcha qatnashchilarini chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Mana shunday muhim va nufuzli forumni mamlakatimizda o‘tkazish tashabbusini faol qo‘llab-quvvatlagani va shaxsan ishtiroki uchun Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik bosh direktori Rafael Grossi janoblariga alohida minnatdorlik izhor etaman.

Mazkur anjumanning azaldan Sharq va G‘arbni bog‘lab kelgan, bugungi kunda xalqaro hamkorlik borasidagi eng dolzarb masalalar bo‘yicha global miqyosda samarali muloqot markaziga aylanib borayotgan qadimiy Samarqand shahrida o‘tkazilayotgani bizga alohida mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta’siri va an’anaviy energiya manbalari taqchilligi yaqqol sezilayotgan hozirgi sharoitda tinch atom hayot sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini amalga oshirishda muhim muqobil yechim hisoblanadi.

Shu ma’noda, o‘tgan yili Dubay shahrida o‘tkazilgan “SOR28” Iqlim sammitida ko‘plab mamlakatlar yetakchilarining atrof-muhitga uglevodorod energetikasi manbalari salbiy ta’sirini keskin kamaytirish maqsadida 2050-yilga qadar atom elektr energetikasi quvvatlarini uch barobarga oshirish bo‘yicha erishgan muhim kelishuvlari bejiz emas, albatta.

Mamlakatimizni ishonchli, xavfsiz, iqtisodiy samarador va ekologik toza energiya manbalari bilan ta’minlash – Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida yetakchi o‘rin egallab kelmoqda.

Biz sohaning huquqiy-institutsional asosini mustahkamlash uchun Milliy agentlik tashkil etdik, Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish haqidagi qonun, Atom energiyasini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli konsepsiya, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan strategiyani qabul qildik. Soha uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini joriy etdik.

Yurtimiz jahonda birinchilardan bo‘lib, xalqaro talab va standartlarga muvofiq kichik quvvatli atom elektr stansiyalarini barpo etishga kirishdi. Biz ushbu loyihalarni, bundan tashqari, sog‘liqni saqlash va qator ilmiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda MAGATEni o‘zimiz uchun muhim sherik deb bilamiz.

Hech shubhasiz, atom energiyasi bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi mamlakatimiz taraqqiyotiga kuchli turtki beradi hamda yangi ilmiy-texnologik ishlanmalar va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish uchun imkon yaratadi.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Ushbu anjuman sohada to‘plangan boy bilim va tajribalarni o‘zaro almashish, keng qamrovli hamkorlik o‘rnatish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda tinch atomdan samarali foydalanish bo‘yicha aniq tavsiya va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun g‘oyat zarur muloqot maydoni bo‘lib xizmat qilishini alohida ta’kidlamoqchiman.

Konferensiya kun tartibiga sohadagi faoliyatni MAGATE bilan muvofiqlashtirgan holda AESlar barpo etish, ularning xavfsizligini ta’minlash, yadro texnologiyalarini rivojlantirishning ekologik jihatlari kabi o‘ta dolzarb masalalar kiritilgan. Shuningdek, innovatsiyalar, yadroviy tibbiyot, sohada ta’limni rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratiladi, deb ishonaman.

Aminmanki, anjuman davomida muhokama qilinadigan barcha g‘oya va tashabbuslar ushbu muhim tarmoqda o‘zaro muloqotni va xalqaro hamkorlikni kengaytirish, energetik xavfsizlikni mustahkamlash, davlatlarning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston barcha xorijiy hamkorlar bilan ushbu ustuvor yo‘nalishda yaqin hamkorlik qilishga doim tayyordir.

Barchangizga sihat-salomatlik, oliyjanob faoliyatingizda ulkan yutuqlar, anjuman ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Oliy Majlis Senatida

HUDUDLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTI BORASIDAGI ISHLAR HOLATI QANDAY?

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar, Mudofaa va xavfsizlik masalalari hamda Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitalarining qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda Andijon, Jizzax, Namangan va Xorazm viloyatlarida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar holati yuzasidan tegishli hokimliklar rahbarlarining axborotlari eshitildi. Shuningdek, mas’ul vazirlik va idoralar mutasaddilarining ushbu yo‘nalishda olib borilgan ishlar yuzasidan hisobotlari ham muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, mazkur viloyatlar byudjetiga tushumlarni ko‘paytirish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni yig‘ish samaradorligini oshirish orqali yanvar – sentabr oylarida jami 8,7 trln. so‘m tushum belgilangan bo‘lib, amalda prognoz ko‘rsatkichlari Andijon viloyatida 103,0 foizga, Jizzax viloyatida – 103,1, Namangan viloyatida – 104, Xorazm viloyatida 104,9 foizga ijro etilgan.

2

8-dekabr – O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

MAQSADIMIZ – ODIL SUDLOVGA ERISHISH, XALQIMIZNI SUD HOKIMIYATIDAN ROZI QILISHDIR



Har qanday demokratik davlatning izchil taraqqiyoti bevosita Konstitutsiyasida belgilangan norma va prinsiplar mazmuni hamda uning ijrosini ta’minlash va hayotga tatbiq etilishiga bog‘liq.

Shu ma’noda, davlatimiz rahbarining 2024-yil 17-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi bilan Yangi O‘zbekiston strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari aks etgan “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!” bosh g‘oyasi negizida o‘tkazilayotgan tadbirlarning barchasi yangi tahrirdagi Bosh qomusimizning jamiyatimiz hayotida naqadar yuksak ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatmoqda.

Zero, Konstitutsiya – davlatning Asosiy Qonuni, shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladigan bosh hujjat. O‘zbekistonda qabul qilinadigan har qanday me’yoriy-huquqiy hujjat – qonun, Farmon, qaror yoki boshqa idoraviy hujjatlarning barchasi, avvalo, Konstitutsiyaga asoslanadi, uning mazmun va ko‘rsatmalaridan kelib chiqadi. Bu esa huquqiy davlatning asosiy belgisi va talabidir.

Inson sha’ni va qadrini yanada yuksaltirish davlat siyosatining bosh tamoyili sifatida belgilangan O‘zbekistondagi ko‘lami keng, shiddati baland, samarasi yuksak demokratik yangilanishlar **xalqimiz manfaatlarini sobitlik bilan ta’minlash**, ona Vatanimiz nufuzini xalqaro maydonda ham mustahkamlash yo‘lida **uzoqni ko‘zlab yuritilayotgan oqilona siyosatning hayotda natijador ekaniga** har qanday kishi amin bo‘ladi. Shu kabi yutuqlar, yaratilgan erkinlik va huquqlar, tizimli islohotlarni amalga oshirish mexanizmi va xalqchil siyosatning davomiyligini ta’minlash uchun bu izchil islohotlar mantig‘ini, albatta, Asosiy Qonunimiz – **Konstitutsiyada huquqiy jihatdan muhrlab qo‘yish** talab etilardi. Boshqacha aytganda, aynan Konstitutsiyamiz shiddat bilan o‘zgarayotgan zamondan orqada qolib ketmasligi, tizimli va keng miqyosli yangilanishlarning mustahkam huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilishi, tinch va osuda hayotimizning kafolati bo‘lishi uchun ham konstitutsiyaviy islohot o‘tkazildi.

3

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

FUQAROLIK JAMIYATIDA SHAFFOFLIK VA SAMARADORLIK

Parlament quyi palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasi tomonidan “Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish masalalari” mavzuida seminar o‘tkazildi.

“Fuqarolik jamiyati haftaligi” doirasida o‘tkazilgan tadbirda ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini hamda ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, davlat organlari va ular o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritildi.

Prezidentimizning shu yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni mazkur sohadagi islohotlarning uzviy davomi bo‘ldi.

2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 5-dekabr

Олий Мажлис Сенатида

HUDUDLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTI BORASIDAGI ISHLAR HOLATI QANDAY?



1 Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida ishi to‘xtab qolgan yoki vaqtincha to‘xtatib qo‘ygan 12 306 ta korxonaning faoliyati qayta tiklanib, tadbirkorlarga yaratilgan imkoniyatlar natijasida 13 051 ta yangi korxona tashkil etilgan.

Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida qiymati 5,6 trln. so‘mlik 1 094 ta loyiha ishga tushirilgani natijasida 54 736 ta yangi ish o‘rni yaratilgan.

Joriy yilning yanvar – oktabr oylarida ushbu hududlarda jami 1 trln. 691 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgani hisobiga 4,3 ming km. avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilingan va ta’mirlanib foydalanishga topshirilgan.

Muhokama jarayonida senatorlar hududda amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga ayrim kamchiliklar va hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarga ham alohida e’tibor qaratdilar. Xususan, 2024-yil yanvar – sentabr oylarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishi rejasi Oltinko‘l tumanida atigi 58,8 foizga ijro etilgan. Zafarobod tumanida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish sur’atlari (88,4 foiz) ta’minlanmagan.

Senatorlar tomonidan bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar bildirildi.

Majlis yakunlari bo‘yicha tegishli qaror qabul qilindi.

DOLZARB QONUNLAR MUHOKAMASI

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasining navbatdagi majlisida bir qator qonunlar dastlabki tarzda muhokama etildi.

Ma’lum qilinganidek, “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun bilan kafolatlangan omonatlar bo‘yicha kompensatsiya to‘lab berish uchun Omonatlarni kafolatlash agentligining faoliyati to‘g‘risida umumiy qoidalar, uning faoliyati maqsadlari, agentlikning huquq va majburiyatlari, boshqaruv organlari tushunchalari kiritilib, agentlikning institutsional, funksional, moliyaviy va shaxsiy mustaqilligi belgilanmoqda. Shuningdek, kafolatlash tizimi, banklarning bunda ishtiroki xususidagi qo‘shimchalar bilan to‘ldirilyapti.

“Mikromoliyalashtirish faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan bank xizmatlarini ruxsat etilgan shartlar asosida ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan yuridik shaxs – mikromoliya banklari institutini joriy qilish, mikromoliya tashkilotlarini mikromoliya banklariga va mikromoliya banklarini tijorat banklariga va aksincha, transformatsiya etishning huquqiy asosi yaratilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunda o‘rta professional va o‘rta maxsus professional ta’lim tashkilotlarida kechki yoki sirtqi ta’lim shaklida o‘qiyotgan xodimlar uchun beriladigan o‘quv ta’til kunlarini aniqlashtirishga, bundan tashqari, homiladorligi yoki farzandi borligi sababli xodimni ishdan bo‘shatishga taqiq joriy etilishiga doir normalar belgilanyapti.

Kiritilayotgan o‘zgartirishlardan yana biri – ishga qabul qilish chog‘ida ishga kirayotgan shaxsning pasporti yoki ID-kartasiga, shuningdek, mehnat daftarchasiga oid ma’lumotlarni davlat organlari va tashkilotlari mustaqil ravishda, shu jumladan, axborot tizimlaridagi idoralararo integratsiyalashuv platformalari orqali so‘rab olishi nazarda tutilmoqda.

Majlisda mazkur qonunlar bank tizimi barqarorligini ta’minlash orqali aholi va tadbirkorlar mablag‘larining but saqlanishi va omonatlar bozorida “nosog‘lom” muhitning kamayishiga, mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligi va hududlarda mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘lamining oshishiga xizmat qilishi ta’kidlandi. Shuningdek, mehnat sohasidagi munosabatlarning elektron tizimga o‘tishini kafolatlashga hamda ishga kirayotgan fuqarolardan ortiqcha hujjatlarni so‘rash hollari bartaraf etilishida muhim o‘rin tutishi senatorlar tomonidan urg‘ulandi.

Muhokamalar yakuni bo‘yicha qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

MAMLAKATNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGI OSHIRILADI

Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi tomonidan Hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish markazi bilan hamkorlikda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari a’zolari uchun o‘quv seminari o‘tkazildi.

Unda Senat va mahalliy Kengashlar oldida turgan dolzarb vazifalar va muhim tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, sohaga oid qonunlarni ko‘rib chiqishda hududiy va umumdavlat manfaatlari uyg‘un bo‘lishini ta’minlash uchun mahalliy Kengashlar deputatlarining fikrlarini, hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish zarurligi aytib o‘tildi.

Shuningdek, mahalliy Kengashlar va doimiy komissiyalar faoliyatini yanada rivojlantirish, Senat qo‘mitalarining mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorligini mustahkamlash, mahalliy ijro hokimiyati ustidan nazoratni kuchaytirish lozimligi ta’kidlandi.

Seminarda Senat tomonidan mahalliy Kengashlar uchun ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanma taqdimoti ham o‘tkazildi. Ushbu qo‘llanma doimiy komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etish, asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha aniq rejalarini belgilash, vakolatlari doirasida muhim masalalarni muhokama qilish va aniq natijalarga erishishda amaliy yordam beradi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, turizm sohasini jadal rivojlantirish, sohada ish o‘rinlarini yaratishga doir normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan qat’iy deputatlik va jamoatchilik nazoratini olib borish shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, doimiy komissiyalar a’zolari ham muhokama etilgan masalalar bo‘yicha o‘z fikrlari va takliflarini bildirdi.

Yakunda ishtirokchilar tomonidan hududiy investitsiya dasturlari bajarilishini birgalikda nazorat qilish, shuningdek, turizmni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlari va turmush darajasini hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi vazifalar belgilab olindi.

“Xalq so‘zi”.

FUQAROLIK JAMIYATIDA SHAFFOFLIK VA SAMARADORLIK

1 Seminarda deputatlar mazkur hujjat fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning shaffof va sog‘lom raqobat tamoyiliga asoslangan tizimni, shuningdek, ijtimoiy samarali dasturlar natijadorligini oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishga qaratilganini alohida qayd etdilar.

Davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohasini rivojlantirishga ko‘maklashish yo‘lida olib borilayotgan ta’sirchan jamoatchilik nazorati, muammolar, ularning yechimi va kelgusida rejalashtirilgan vazifalar ham muhokama qilindi.



Qo‘mita a’zolari davlatimiz rahbarining Oliy Majlis palatalaridagi nutqlarida har bir qo‘mita qoshida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlarini tuzish, quyi palata huzurida Jamoaviy tashabbuslar bo‘yicha parlament komissiyasini tashkil qilish borasida ilgari surgan tashabbuslari muhim ahamiyatga egaligini qayd etdilar. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlari uchun yagona elektron platforma yaratilishi, bu platforma orqali davlat subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar taqdim qilinadigan jarayonlarning shaffofligini ta’minlash ko‘zda tutilgani aytib o‘tildi.

Yakunda ishtirokchilar tomonidan berilgan fikr-mulohazalar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

IJTIMOIY HUQUQLARIMIZ KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi tomonidan “Mening Konstitutsiyam 32 yoshda!” shiori ostida “Konstitutsiya – ijtimoiy huquqlarimiz kafolati” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.

Ta’kidlanganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotimizning turli sohasida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ko‘lamli islohotlarni izchil davom ettirish bo‘yicha strategik maqsadlar o‘z ifodasini topdi. Xususan, ta’lim olish huquq va imkoniyatlari kengaytirilib, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini yanada qo‘llab-quvvatlash qoidalari joriy qilindi.

Davlat tomonidan bepul umumiy o‘rta va boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi kafolatlari belgilanib, oliy ta’lim muassasalariga akademik erkinlik berildi. Bularning barchasi yosh avlod istak va intilishlarini ro‘yobga chiqarish, jamiyatda munosib o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy Qonunimizda davlat o‘qituvchilarning sha’ni, qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishida g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi ham mustahkamlab qo‘yildi. Natijada yangi O‘zbekistonda o‘qituvchilar maqomini ko‘tarish, qadr-qimmatini oshirishga qaratilgan ishlar butunlay yangi bosqichga chiqdi. Ularda o‘z kasbiga ishtiyoq ortdi, bilimini oshirishga intilish kuchaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga to‘xtalgan tadbir ishtirokchilari ushbu hujjat bilan bolalar mehnatning og‘ir shakllaridan muhofaza etilishi, ularning sog‘lom va barkamol rivojlanishi kafolatlanganiga urg‘u berdi. Konstitutsiyada davlatimiz tomonidan yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishi, ularning intellektual, ijodiy, jismoniy va ma’naviy kamol topishi, iste’dod va qobiliyatini namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratilishi belgilab qo‘yilgani yoshlar qalbida Vatanimiz, Bosh qomusimiz bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirayotgani ta’kidlandi.

Qo‘mita a’zolari so‘nggi yillarda yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, sifatli ta’lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar muhayyo qilish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgani va bu zamon talablariga hamohang takomillashtirib borilayotganini qayd etishdi.

EKOLOGIK ISLOHOTLARNING MUSTAHKAM ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – erkin va farovon hayot garovi” shiori ostida “Konstitutsiya – huquqiy davlat kafolati” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jamiyatning barcha qatlami manfaatlari inobatga olingani qayd etildi. Xususan, aholining ekologik huquqlari alohida belgilab qo‘yildi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Deputatlar Bosh qomusimizda tabiat va jamiyat tizimidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus normalar belgilangani, ular ekologik huquqiy munosabatlar poydevorini tashkil etishi, har bir modda dasturilamal bo‘lib, hayotimiz qoidasiga aylanishi lozimligini ta’kidlashdi.

Konstitutsiyada Vazirlar Mahkamasi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklar va biologik xilmaxillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlashi belgilab qo‘yilgan va ushbu normalar asosida barcha choralar ko‘rilmoqda.

So‘z olganlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ahamiyatiga alohida to‘xtalib, milliy va umuminsoniy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan, xalqimizning barcha qatlami manfaatlarini ifodalovchi Bosh qomusimiz amalga oshirilayotgan ekologik islohotlarning asosi bo‘lib xizmat qilayotganini qayd etdi. Belgilab berilgan normalarning hayotga keng ko‘lamda joriy qilinishi atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yurtimizda ekologik holatni sog‘lomlashtirish nafaqat davlat va jamiyat, shu bilan birga, har bir fuqaroning vazifasi bo‘lishiga erishishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlandi.

Yakunda ishtirokchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekiston – JST:

STRATEGIK VAZIFA VA DUNYO BOZORIGA KIRISH IMKONIYATI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi hamda Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlislaridagi dasturiy nutqlarida davlatimiz yaqin yillarda Jahon savdo tashkiloti (JST)ga, albatta, a’zo bo‘lib kirishi kerakligini alohida ta’kidlagan edi.

Mushohada



Darhaqiqat, 2030-yilga qadar milliy iqtisodiyotimiz hajmini 200 milliard dollarga yetkazish, yillik eksport hajmini esa 2 barobarga oshirib, 45 mlrd. dollarga olib chiqishga qaratilgan muhim maqsadlarimizga erishishga imkon beruvchi ushbu ko‘p tomonlama savdo tizimiga qo‘shilish nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Ya’ni JSTga to‘laqonli a’zo bo‘lish O‘zbekistonning strategik maqsadlaridan biri bo‘lib, bu mahalliy mahsulotlar va xizmatlarimizning dunyo bozorlariga kirib borishiga sharoit yaratadi.

Aytish kerak, mamlakatimiz JSTga a’zo bo‘lish borasidagi sa’y-harakatlarini 2017-yilda yangitdan jonlantirdi. Ayniqsa, so‘nggi ikki yil davomida ushbu jarayon yanada jadallashib, qisqa tarixiy davr oralig‘ida O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish bo‘yicha tuzilgan Ishchi guruhning to‘rt marotaba yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Joriy yilning dekabr oyida esa Ishchi guruhining navbatdagi yig‘ilishi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Mazkur yo‘nalishdagi samarali sa’y-harakatlar natijasi o‘laroq, bugungi kunga kelib, O‘zbekiston AQSH, Yaponiya, Turkiya, Braziliya, Saudiya Arabistoni kabi 20 dan ortiq JST a’zolari bilan milliy bozorimizga ushbu davlatlar mahsulotlari va xizmatlarining kirishi shartlarini kelishish bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralarni tugalladi. Qolgan bir qator JST a’zolari bilan bunday muzokaralarni yakunlash maqsadida izchil ishlar olib borilayotir. Eng muhimi, O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish bo‘yicha bu boradagi shartlarni qayd etuvchi hisobot matnini shakllantirishga kirishildi.

JST Kotibiyati ham O‘zbekistonning ushbu izchil sa’y-harakatlarini e’tirof qilgan holda tashkilotga a’zo bo‘lib kirish jarayonida davlatimizni to‘liq qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: JST qanday tashkilot va davlatlar unga qanday qo‘shiladi?

Qayd etish joiz, JST – bu 166 ta a’zo davlat o‘rtasida bugungi kunda butun xalqaro savdo hajmining chamasi 98 foizini tashkil etuvchi o‘zaro savdo aloqalarini amalga oshirishni tartibga solib turuvchi ko‘p tomonlama institutsional va huquqiy tizimdir.

JST dastlabki (asoschi) va tashkilotga keyinchalik qo‘shilgan a’zolardan iborat. JSTni ta’sis etish to‘g‘risidagi Marokash kelishuvining XII-moddasi 1-paragrafiga muvofiq tashkilotga qo‘shilish har qanday davlat yoki tashqi savdo aloqalarini amalga oshirishda, JST bitimida va ko‘p tomonlama savdo bitimlarida nazarda tutilgan masalalarda to‘liq avtonomiyaga ega bo‘lgan alohida bojxona hududi uchun ochiqdir. Hozirgacha o‘ttiz sakkizta davlat va bojxona hududi JSTga qo‘shilgan bo‘lib, ular a’zolarning beshdan bir qismidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Belarus kabi yana 20 dan ortiq davlatlarning JSTga qo‘shilish bo‘yicha muzokaralari davom etmoqda.

JST boshqa xalqaro tashkilotlarga nisbatan o‘ziga xos a’zolik rejimiga ega. Umuman olganda, ko‘pchilik universal hukumatlararo tashkilotlarga qo‘shilish uchun davlatlar (yoki xalqaro munosabatlarning ba’zi boshqa ishtirokchilari), birinchi navbatda, muayyan shartlarga rioya qilishlari kerak. Keyin ular tegishli rejimlarni o‘rnatuvchi, shuningdek, a’zolik majburiyatlari bajarilishini ta’minlaydigan tashkilotning ta’sis etuvchi asosiy xalqaro shartnomalarga qo‘shilishi lozim. Bunday tashkilotlarga qo‘shilish jarayoni odatda milliy qonunlar va turli sohalardagi davlat siyosatini jiddiy o‘zgartirishni talab qilmaydi. Shu bois ushbu tashkilotlarga qo‘shilish jarayoni ko‘p vaqt olmaydi.

JSTga qo‘shilish jarayoni esa, aksincha, odatda uzoq vaqt talab etadi. Bunga asosiy sabab sifatida quyidagi o‘ziga xos jihatlarni ko‘rsatish mumkin:

birinchidan, JSTga qo‘shilish jarayonini ayrim holatlarda davlatlarning o‘z iqtisodiyotini boshqarish tartibini o‘zgartirish jarayoni sifatida tavsiflasak, aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ko‘pgina boshqa xalqaro tashkilotlardan farqli o‘laroq JSTga a’zo bo‘lish uchun nomzodlar milliy bozorni import raqobatiga ochish bilan bog‘liq maxsus majburiyatlar shaklidagi aniq shartlarni a’zolik bo‘yicha ishchi guruhida ishtirok etayotgan har bir JST a’zosi bilan o‘zaro ikki tomonlama muzokaralar davomida kelishib olishi lozim. Ayni vaqtda tashkilotga qo‘shilayotgan davlatlar JST kelishuvlari va ko‘p tomonlama muzokaralar natijasida kelishilgan qo‘shimcha a’zolik shartlariga muvofiq o‘zining ichki bozorini import raqobatidan himoya qilish, mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini qo‘llab-quvvatlash siyosatini kelishuv shartlariga muvofiqlashtirishi lozim bo‘ladi. Boshqacha aytganda, tashkilotga qo‘shilgan davlatlar mahalliy ishlab chiqarishni himoya qilishga qaratilgan mavjud ichki qonunlar va qoidalarni JST bitimlari bilan moslashtirib, ulardagi qoidalarga zid keladigan amaliyotlardan voz kechishiga to‘g‘ri keladi;

ikkinchidan, JSTga a’zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralar masalalari faqat JST bitimlarida keltirilgan holatlar bilan cheklanmagan, ya’ni JSTni ta’sis etish to‘g‘risidagi Marokash kelishuvining XII-moddasi qo‘shilayotgan hukumatlar va JST a’zolari o‘rtasida kelishish shartlariga hech qanday cheklov qo‘ymaydi. Natijada ko‘pincha tashkilotga qo‘shilgan davlatlar uning dastlabki a’zolariga nisbatan boshqa mamlakatlarning mahsulotlari va xizmatlarining o‘z bozoriga kirib kelishi bo‘yicha ko‘proq imkoniyatlar hamda JST bitimlarida uchramaydigan qo‘shimcha huquqiy majburiyatlar bilan JSTga qo‘shilgan. Bunday shartlarning ko‘lami va mazmuni har bir tashkilotga qo‘shilgan a’zo uchun o‘ziga xosdir. Ya’ni tashkilotga qo‘shilgan davlatlarning a’zolik shartlari bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, tashkilotning ayrim yangi a’zolari (masalan, Xitoy) JST kelishuvlaridan ancha kengroq bo‘lgan (ya’ni ularda ko‘zda tutilmagan) majburiyatlar yoxud aynan shu davlat uchungina o‘zgartirib qo‘llaniladigan shartnomaviy majburiyatlar bilan tashkilotga a’zo bo‘lib kirgan;

uchinchidan, aniq a’zolik mezonlari yo‘qligi sababli JSTga qo‘shilish jarayoni ko‘p jihatdan turli davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, shu jumladan, geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlariga asoslangan holda olib borilishi holatlari ham kuzatiladi.

Umuman olganda, shartnoma matnida tashkilotga qo‘shilish bo‘yicha batafsil qoidalar yo‘q. Shu sababli JSTga a’zo bo‘lish JST Kotibiyatining bir qator amaliy qo‘llanmalari asosida shakllangan. Ushbu hujjatlar asosida JSTga a’zo bo‘lish jarayonini to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin:

– tashkilotga a’zo bo‘lish uchun rasmiy ariza berish va qo‘shilish bo‘yicha ishchi guruhni tuzish;

– qo‘shilayotgan hukumatning savdo rejimi to‘g‘risida faktik ma’lumotlarni to‘plash;

– qo‘shilish shartlari bo‘yicha muzokaralar olib borish;

– ishchi guruhning mandatini bajarish va JSTga a’zo bo‘lish.

Yuqoridagilar asosida shuni ta’kidlash lozimki, JSTga qo‘shilish har qanday va ayniqsa, rivojlanayotgan davlat uchun juda og‘ir va qiyin jarayondir. Shu sababli bu holat uzoq davom etadi. Misol uchun, tashkilotga 38 ta a’zoning qo‘shilishi uchun arizalar topshirgan paytdan boshlab, a’zo bo‘linguncha o‘rtacha 10 yilu 2 oy kerak bo‘lgan. Bundan tashqari, yirik iqtisodiyotlar, masalan, Xitoy 14 yilu 9 oy, Rossiya Federatsiyasi 19 yilu 1 oy va Saudiya Arabistoni 12 yilu 5 oy va kichik iqtisodiyotlar, masalan, Nepal 14 yilu 10 oy, Samoa 13 yilu 10 oy va Vanuatu 17 yilu 1 oy o‘rtasida ularning tashkilotga qo‘shilish davrining davomiyligi bo‘yicha unchalik katta farq yo‘q.

JSTga a’zo bo‘lib kirishda va undan samarali foydalanishimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining o‘rni qanday bo‘lishi lozim?

JSTga a’zo bo‘lishning iqtisodiy oqibatlarini turli nuqtayi nazardan tahlil qilgan ekspertlarning aksariyati, umuman olganda, tashkilotga qo‘shilish milliy iqtisodiyotlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlashadi. Shunga qaramay, ular JSTga a’zolik beradigan imkoniyatlar a’zo davlatlar o‘rtasida notekis taqsimlanganligini ham e’tirof etishadi.

Demak, JSTga a’zo bo‘lish orqali turli davlatlar a’zolikdan turli darajada iqtisodiy foyda olishi mumkin. Ya’ni iqtisodiy foyda olish ko‘lami tizimda qatnashish faktiga emas, balki u yoki bu a’zo davlatda amalga oshirilgan iqtisodiyotni tartibga solish borasidagi islohotlarining tabiatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi.

Shunday ekan, xalqimiz farovonligini oshirish maqsadida Prezidentimiz oldimizga qo‘ygan ulkan iqtisodiy marralarga erishish yo‘lida JSTga a’zolikdan maksimal ravishda foyda olishimiz uchun iqtisodiy siyosatimizni JST bitimlari qoidalariga muvofiqlikda samarali tashkil qilishimiz g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ham qonun chiqaruvchi, ham ijro hokimiyati organlaridan bu yo‘nalishda faollikni talab qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qoshida qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha Parlament komissiyasini tashkil qilish taklifi ham mana shu oliy maqsadga qaratilgan.

Fikrimizcha, mazkur Parlament komissiyasi faoliyati quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim;

birinchidan, milliy qonunchiligimizni JST bitimlari qoidalariga muvofiqlashtirish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish zarur. Bu borada davlatimiz rahbari parlament oldidagi aniq vazifalarni belgilab berdi. JST bitimlari qoidalariga muvofiqlashtirish bo‘yicha soliq va bojxona, tashqi savdo, standartlashtirish va boshqa bir qator yo‘nalishlardagi qonunlarga qisqa muddat ichida o‘zgartirish kiritishimiz lozim bo‘ladi;

ikkinchidan, mahalliy mahsulotlarimizning dunyo bozorlariga erkin kirib borishini ta’minlash uchun xalqaro tan olingan texnik hamda sanitar va fitosanitar kabi notarif choralar hisoblanuvchi standartlarni ishlab chiqarishga keng joriy etish bo‘yicha faoliyatni tashkiliy-huquqiy jihatdan ta’minlash darkor.

uchinchidan, JST huquqiy tizimidan samarali foydalana oladigan yuqori salohiyatga ega iqtisodchi hamda huquqshunos kadrlar tayyorlashga, tadbirkorlarimiz va tegishli davlat organlari xodimlari malakasini doimo oshirib borishga qaratilgan tizimni yaratish zarur.

Eng asosiysi, Parlament komissiyasi yuqoridagi yo‘nalishlardagi faoliyatini tegishli vazirlik va idoralar, “aql markazlari” va jamoatchilik vakillari, tadbirkor va ishbilarmonlar bilan yaqindan ishlash asosida olib borishi lozim. Shundagina biz bu boradagi sohani tartibga soladigan mukammal qonunlar, samarali va xalqchil yechimlarni ishlab chiqa olamiz.

Umid YAKUBXODJAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Endilikda “Davlat xaridlari – biznesga ko‘mak” tamoyili asosida tadbirkorbay ishlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

MAQSADIMIZ – ODIL SUDLOVGA ERISHISH, XALQIMIZNI SUD HOKIMIYATIDAN ROZI QILISHDIR

1 Natijada 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendumda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahriri unda ishtirok etgan fuqarolarning mutlaq ko‘pchiligi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilingandi. Bu Bosh qomusimizda xalqimizning yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganini yorqin namoyon qildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasi siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Izchil islohotlar mantig‘i

Bugungi O‘zbekiston nafaqat iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan yirik davlatga aylanmoqda, balki aholisi soni **2040-yilga** borib **50 million**ga yetadigan nufuzli mamlakat hamdir. Ayni shu ma’noda Konstitutsiyaga kiritilgan yangi norma va prinsiplar mazmunida fuqarolarimiz munosib hayot kechirishi yo‘lida qulay shart-sharoit va mustahkam huquqiy zamin yaratish uchun **barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar** yaqqol aks etadi.

Agar asosiy konstitutsiyaviy yangiliklarning mazmuni va mohiyatiga qarasak, konstitutsiyaviy islohotlar doirasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga quyidagi g‘oya va qoidalarni aks ettiruvchi qator muhim o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilganini ko‘ramiz:

birinchidan, ular **inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat** deb tan olgan O‘zbekistonning **ko‘p millatli xalqining irodasi**ni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan tuzatishlarni o‘z ichiga oladi. Buning uchun davlat va jamiyat taraqqiyoti mafkurasi, O‘zbekiston xalqining konstitutsiyaviy-huquqiy ijodkorligining o‘ziga xosligini aks ettiruvchi konstitutsiyaviy qadriyatlar belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning muqaddima qismida milliy davlatchilikni takomillashtirishning yangi bosqichida **O‘zbekiston konstitutsiyaviy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari** belgilab berildi;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi va davlat shakliga oid **mustaqil, demokratik, suveren davlat** sifatidagi **davlat-huquqiy maqomini mustahkamlovchi** yangi konstitutsiyaviy prinsiplar o‘rin oldi.

Konstitutsiyaning 1-moddasiga kiritilgan tuzatishlarga ko‘ra, O‘zbekiston – respublika boshqaruv shaklidagi **suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat** deb belgilandi. Mazkur moddada aks etgan qoidalar o‘z mohiyatiga ko‘ra O‘zbekistonda olib borilayotgan **konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy maqsadini** ifodalab, Konstitutsiyaning butun matni bo‘yicha mustahkamlangan barcha o‘zgartish va qo‘shimchalar mazkur eng muhim davlatchilik modeli amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, davlatchiligimizning yuqorida sanab o‘tilgan konstitutsiyaviy tuzumga xos barcha belgilarining barqarorligi va o‘zgarmasligi kafolatini Konstitutsiya darajasida mustahkamlash maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasi qoidalari **qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emasligi**ga oid talab 154-moddada qat’iy belgilab qo‘yildi;

uchinchidan, yangi O‘zbekistonni barpo qilish maqsadida 2023-yilda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohot natijasida davlat va jamiyat boshqaruvi modeli o‘zaro munosabatlari o‘zagidagi **“davlat – jamiyat – inson”** prinsipi o‘rniga inson manfaatlari birinchi o‘ringa ko‘tarilgan **“inson – jamiyat – davlat”** formulasi asos qilib belgilandi.

Masalan, Konstitutsiyamiz 1992-yilda qabul qilinganidan buyon unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarning aksariyati **davlat va jamiyat qurilishi** – Prezident, parlament, hukumat faoliyati, saylov tizimi va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan **normalarning yarmidan ko‘pi insonning huquq va erkinliklarini** himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish va uni amalga oshirish mexanizmlarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan;

to‘rtinchidan, Konstitutsiyamizda davlat hokimiyati o‘z faoliyatida qonunga bo‘ysunishi, xalq irodasiga tayanishi, shaxsning huquq va erkinliklarini samarali ta’minlashni nazarda tutuvchi **huquqiy davlatning eng muhim belgilari** o‘z ifodasini topdi. Inson huquqlari va erkinliklari ishonchli himoyasining asosiy kafolatlari sifatida Konstitutsiya va qonunning ustunligini ta’minlashga oid zamonaviy konstitutsiyaviy mexanizmlar mustahkamlandi.

Jumladan, 15-moddaga kiritilgan tuzatishlarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Asosiy Qonun mamlakatning **butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosi** hisoblanadi. 16-moddada O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari mamlakat Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoyalanishning barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan bevosita O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga **murojaat qilish huquqi** 133-moddada belgilab qo‘yildi. Bu huquqlar Asosiy Qonunda muhrlanishi inson huquqlari va erkinliklarining eng muhim kafolati bo‘lib xizmat qiladi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlaydi;

beshinchidan, inson va fuqaroning asosiy **shaxsiy huquq va erkinliklarini ta’minlashning konstitutsiyaviy kafolatlari** sezilarli darajada kuchaytirildi. Bu o‘zgartirishlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning tom ma’noda xalqchil va inson manfaati har narsadan ustunligi muhrlangan hujjat sifatidagi qiyofasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uning 19-moddasida O‘zbekistonda insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirofdagi normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi, deb belgilanishi milliy Konstitutsiyamizning eng ilg‘or shunday hujjatlardan kam emasligini bildiradi. Masalan, “ajralmas huquqlar” atamasi Yevropaning Germaniya, Bolgariya, Vengriya, Chexiya kabi davlatlari konstitutsiyalarida ham qo‘llanilgan bo‘lib, mazkur qoida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan holda uning tartibga solish obyektlari qamrovi doirasini yanada kengaytiradi;

oltinchidan, Konstitutsiyaning 20-moddasi qonunlarning, davlat organlari, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari **mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak,** degan konstitutsiyaviy normalar ham alohida ahamiyatga egadir. Jumladan, ushbu muhim xalqaro-huquqiy prinsip Konstitutsiyamizning huquq va erkinliklarga oid qoidalarining barcha **ijtimoiy munosabatlarga bevosita tartibga soluvchi** ta’sirini bildiradi. Ya’ni qonunchilik hujjati huquq va erkinliklarni aniqlashtirish, uni samarali amalga oshirish, mexanizmlari va tartiblarini belgilash maqsadida qabul qilinganidan qat’i nazar, Konstitutsiyadagi huquq va erkinliklar bevosita amal qiladi, deb tan olinishini anglatadi;

yettinchidan, yana bir muhim jihat – milliy Konstitutsiyamizning 21-moddasida ilk marotaba **har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega** ekani va hech kimga **uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emasligi** mustahkamlandi. Bunda insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘ligini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkinligi belgilandi. Bu holat uning xalqaro andozalarga to‘liq mos kelishini ko‘rsatadi. Misol uchun, mazkur norma BMTning **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (29-modda) hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt**da (4, 5, 12, 19, 21, 22-moddalar) mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini cheklash shartlaridan kelib chiqadi.

Davlatning oliy maqsadi

O‘zbekiston Prezidentining boshqa mamlakatlarda yashayotgan vatandoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish zarurligi to‘g‘risidagi fikrlaridan kelib chiqib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aks etgan, davlatning fuqarolar oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilgan qator yangi konstitutsiyaviy normalar Bosh qomusimizning o‘ziga xosligini ta’minlaydi.

Masalan, 23-moddada O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi **O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi** o‘z aksini topdi. Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qiladi, deb belgilandi. Bu esa fuqarolar himoyasining davlat kafolatlarini mustahkamlaydi, shuningdek, xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish, xalqaro maydonda O‘zbekiston Respublikasining ijobiy imijini shakllantirish uchun huquqiy sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning 25-moddasida yashash huquqi **har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi**, shu munosabat bilan Asosiy Qonunda **O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi**, deb belgilandi. Garchi O‘zbekiston qonunchiligiga 2008-yilda o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risidagi norma kiritilgan bo‘lsa-da, bu taqiq ilk bor Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Bunday qoidalarning Konstitutsiyaga kiritilishi bilan ularning maqomi oshirildi, endi ular konstitutsiyaviy norma bo‘ldi hamda ulardan voz kechish yoki orqaga qaytib bo‘lmasligi kafolatlandi. 26-moddada **insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz ekani, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi** belgilandi.

Muhim jihatlardan yana biri, bu – inson, jumladan, qonunni buzganlarning huquqlarini davlat organlari, mansabdor shaxslarning har qanday o‘zboshimchaliklaridan himoya qilishning deyarli barcha zamonaviy usullarini o‘zida mujassam etgan ishonchli mexanizmlar mustahkamlanishidir.

Konstitutsiyaga kiritilgan tuzatishlarga muvofiq, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash kafolatlari, shu jumladan, **“Xabeas korpus”** va **“Miranda qoidasi”** umume’tirof etilgan institutlarini

> ***“Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning sud hokimiyatiga bag‘ishlangan bobidagi 11 ta moddada odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining huquq va majburiyatlari, sud qarorlari barcha uchun majburiyligi, sudya va oila a’zolarining xavfsizligini ta’minlash, sudyaning muayyan ishni ko‘rishdagi vakolatlari hamda sudlar faoliyatini moliyalashtirish kabi 30 dan ziyod muhim konstitutsiyaviy normalar mustahkamlandi. Bularning barchasi sudyalar mustaqilligi, odil sudlov tizimini demokratlashtirishning konstitutsiyaviy asoslari qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim shartlari sifatida sezilarli darajada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.”***

konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash orqali sezilarli kuchaytirildi.

“Yangi O‘zbekiston – yangi sud” tamoyili

Mamlakatimizda inson manfaatlari yo‘lidagi keng qamrovli yangilanishlarning muhim yo‘nalishi hisoblangan **sud-huquq tizimidagi strategik islohotlar samarasini ta’minlashda** yangi tahrirdagi Konstitutsiya norma va prinsiplari hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekiston Prezidentining sud organlari tizimida odil sudlovni ta’minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi **“Asosiy maqsadimiz fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini qat’iy mustahkamlash, sudni chin ma’noda “adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirishdan iboratdir”**, degan konseptual fikri mazkur sohadagi islohotlarning asosiy mazmunini aks ettiradi.

Mana shunday ulug‘vor islohotlar poydevorini, shubhasiz, Bosh qomusimiz – O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan prinsip va normalar tashkil qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada **sud hokimiyatiga** bag‘ishlangan alohida XXIII bob mavjud bo‘lishi va uning 130-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan **mustaqil holda ish yuritadigan sud hokimiyatining Konstitutsiya darajasida institutsional mexanizmlarini** belgilab beradi. Konstitutsiyamizning 11-moddasidagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi”, degan konstitutsiyaviy prinsip amalda bo‘lishini ta’minlaydi. Jumladan, 2017 – 2024-yillardagi sud islohotlari natijasi **O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi** tashkil etilishi; **Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi** negizida fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va xo‘jalik sudlov sohasidagi yagona oliy sud hokimiyati organi – **Oliy sud** faoliyati yo‘lga qo‘yilishi; **ma’muriy, iqtisodiy sudlar**ga asos solinishi; **Konstitutsiyaviy sud**ning mustaqilligi mustahkamlanishi, vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilishi kabilarda namoyon bo‘ldi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning sud hokimiyatiga bag‘ishlangan bobidagi 11 ta moddada odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining huquq va majburiyatlari, sud qarorlari barcha uchun majburiyligi, sudya va oila a’zolarining xavfsizligini ta’minlash, sudyaning muayyan ishni ko‘rishdagi vakolatlari hamda sudlar faoliyatini moliyalashtirish kabi 30 dan ziyod muhim konstitutsiyaviy normalar mustahkamlandi. Bularning barchasi **sudyalar mustaqilligi, odil sudlov tizimini demokratlashtirishning konstitutsiyaviy asoslari** qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim shartlari sifatida sezilarli darajada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyaning 135-moddasida Sudyalar oliy kengashining konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlandi – u **sudyalar korpusining shakllantirilishini**, sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta’minlaydigan sudyalar hamjamiyatining **mustaqil** organi sifatida belgilandi. 136-moddada sudyalar daxlsiz va **muayyan ishlar bo‘yicha hisobdor bo‘lmasligi**, davlat **sudyaning** va **uning oila a’zolarining xavfsizligini** ta’minlashi belgilandi, 140-moddada sudlarning faoliyatini moliyalashtirish **faqat Davlat byudjetidan amalga oshirilishi** hamda u odil sudlovni to‘liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta’minlashi kerakligi to‘g‘risidagi normalar mustahkamlandi.

Sud hokimiyatining tom ma’nodagi mustaqilligini ta’minlashga, tizim xodimlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashga yuksak darajada e’tibor qaratib kelinmoqda. Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib o‘tgan bayram tantanasida Prezidentimiz xalqimizni bu ulug‘ ayyom bilan tabriklab, barcha islohotlarimizning ruhi va mazmuniga **“Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!”** degan ezgu g‘oya chuqur kirib borayotganini qayd etdi. Yangi O‘zbekistonni barpo qilishda asosiy e’tiborni beshta ustuvor yo‘nalishga qaratish, jumladan, korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish zarurligini ham alohida ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari **“Sud tizimi mustaqil bo‘lmas ekan, jamiyatimizda rivojlanish bo‘lmaydi”**, degan fikrni hamisha takrorlashi bejiz emas. Chunki sud idorasiga ishi tushgan har bir shaxs ushbu dargohda qonun va adolat ustuvor ekaniga ishonch hosil qilishi lozim.

Yangi O‘zbekistonda har qanday bahsli masalaga adolatli yechim faqat odil sud tomonidan topilishi kerak. Bu borada sudlar tomonidan konstitutsiyaviy normalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanilishi orqali inson huquqlariga oid kafolatlarni to‘laqonli ta’minlash maqsadida Oliy sud plenumining **“Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”**gi qarori qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Jumladan, Oliy sud plenumining mazkur qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-maydan joriy yilning 1-noyabriga qadar sudlar tomonidan **34 626 ta** jinoyat ishi va materialida, ma’muriy huquqbuzarlikka oid **63 328 ta** ish va materialda, **34 429 ta** fuqarolik ishida, **39 448 ta** iqtisodiy ishda, shuningdek, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan **10 388 ta** ma’muriy ishda, jami **182 219 ta** ish va materialda yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanildi.

Konstitutsiyaning 55-moddasidagi “Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi”, degan qoidalarni hayotga tatbiq etish barcha bosqichdagi sudlarning bosh vazifasiga aylangan.

O‘zbekiston Prezidentining tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi**da ham sud tizimi uchun “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” yo‘nalishida 18 ta aniq vazifa belgilab berildi.

Odil sudlovga erishish – pirovard maqsad

Sud islohoti doirasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan yana bir muhim hujjat – davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-yanvarda qabul qilingan “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hisoblanadi.

Ushbu hujjat bilan **2023 – 2026-yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi** tasdiqlandi. Uning asosiy vazifasi “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida **“Yangi O‘zbekiston – yangi sud”** tamoyili doirasida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya etishga yo‘naltirish bo‘lib, unda adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalar siymosida o‘zining ishonchli himoyachisini ko‘rishiga erishish kabi 40 ta aniq vazifa belgilab berildi.

Sohaning huquqiy asoslari jadal rivojlanishini quyidagi raqamlarda ham ko‘rishimiz mumkin. 2017 – 2024-yillarda Oliy sud tomonidan 275 ta me’yoriy-huquqiy hujjat loyihasi, shu jumladan, 177 ta qonun loyihasi ishlab chiqildi. Natijada shu davrda sud tizimiga oid 60 dan ortiq qonun, Farmon va qarorlar qabul qilindi. **Sudlarning moliyaviy mustaqilligi kuchaytirildi.** Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipiga rioya etish, sudlarni moddiy-texnika va moliyaviy ta’minlash masalalarini mustaqil hal qilish maqsadida Oliy sud huzuridagi **Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti** tashkil etildi.

Sud ishlarini yuritishda yangi institutlar kiritildi, mavjudlari takomillashtirildi. Jinoyat protsessida **yarashuv instituti** kengaytirildi, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlarida alohida sudyalar – **tergov sudyalari** lavozimi kiritildi, jinoyat ishi bo‘yicha **dastlabki eshituv**, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda **sudgacha majlis, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish, mediatsiya** institutlari joriy qilindi. Inson huquqlarini sud orqali himoyalash tizimi izchil takomillashtirilmoqda. Xususan, jinoyat ishi yurituvida insonparvarlik tamoyillari asosida **“Xabeas korpus”** institutini yanada keng tatbiq etish maqsadida 2025-yil 1-yanvardan tergov sudyalari institutini milliy amaliyotga joriy qilish belgilandi.

Sudlarning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Sudlar faoliyati haqida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini xabardor qilish maqsadida har chorakda viloyat sudlari raislari va o‘rinbosarlari tomonidan brifinglar o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Qabul qilingan sud hujjati o‘qib eshittirilganidan so‘ng uning mazmun-mohiyati sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirilyapti.

Sudlar chiqargan qarorlar Oliy sud veb-saytida muntazam ravishda e’lon qilib borilmoqda. Oliy sudda Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi (PR markaz) hamda viloyat sudi va unga tenglashtirilgan sudlarda matbuot xizmatlari tashkil etilgani **aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish va sud hokimiyati ochiqligini oshirish** yo‘lida ko‘rilgan muhim chora bo‘ldi. Sudlar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Sudlarda ishlarni ko‘rib chiqishda adolatni, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash uchun **“Elektron odil sudlov”** tizimi tatbiq etildi.

Jamiyatning barcha qatlami manfaatlari inobatga olingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini samarali ta’minlash mas’uliyatini, davlatning ham xalq oldidagi majburiyatini bir necha baravar oshirdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga singdirilgan **“Inson manfaati har narsadan ustun”** mezoni bugun amalda o‘z ifodasini topayotir.


Biz sudyalarni kasbga tayyorlash va malakasini oshirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish, sud qarorlari ijrosini so‘zsiz ta’minlash, odil sudlovga erishish bo‘yicha tizimli ish olib borishda davom etamiz. Maqsadimiz xalqimizni sud hokimiyatidan rozi qilishdir.

Baxtiyor ISLOMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy sudi raisi.

TIBBIYOT yangiliklari

Kasalliklarni erta bartaraf etish yo‘lida

Respublika perinatal markazida har yili turli a’zolarida tug‘ma nuqsoni bo‘lgan chaqaloqlar va emizikli bolalarda 550 – 600 tadan ortiq murakkab yuqori texnologik operatsiyalar o‘tkazilyapti.



Ayrim kasalliklarni go‘dakning homilalik davrida, ya’ni ona qornidayoq bartaraf qilishga imkon beruvchi fetal tibbiyot tajribasidan samarali foydalanib kelinayotgani diqqatga sazovor.

Sog‘liqni saqlash vaziri A. Xudoyorov ushbu muassasa xodimlari bilan suhbat jarayonida shular xususida so‘z yuritdi. Muloqot davomida erishilgan natijalar tahlil qilinishi barobarida, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarga ham alohida urg‘u berildi.

Muassasada tibbiy turizmni taraqqiy ettirish uchun katta salohiyat mavjudligi, shu bois tibbiy turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqilishi ta’kidlandi.

22 milliard so‘mlikdan ziyod dori-darmon bepul berildi

Shu yilning 9 oyi davomida 14 toifadagi shaxslarga 22 mlrd. 136 mln. so‘mlik dori vositalari va tibbiyot buyumlari bepul berildi.

Bu haqda AOKAda bo‘lib o‘tgan brifingda “Dori-Darmon” AK boshqarma boshlig‘i X. Eshbekova ma’lum qildi.

Ta’kidlanganidek, hisobot davrida grippga qarshi 1 mln. 100 ming dozadan oshiq vaksinalar olib kelingan bo‘lib, ular Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi, tibbiyot hamda vaksinatsiya markazlariga, turli vazirlik va idoralarga yetkazib berildi.

O‘tgan o‘n oyda esa kompaniyaning reimbursatsiya dasturiga ulangan dorixonalari orqali 3,6 mlrd. so‘mlik dori vositalari elektron retsept orqali bemorlarga bepul tarqatilgan.

Markaz ISO sertifikatlariga ega bo‘ldi

Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga ISO 9001:2015 hamda ISO 7101:2023 xalqaro sifat standartlarini joriy etganligi munosabati bilan maxsus sertifikatlar topshirildi.



Tadbirda aytilganidek, teri va tanosil kasalliklarining 38 ta yangi davolash hamda 34 ta tashxisot usuli joriy etildi. Markaz 40 dan ziyod yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlanib, sun’iy intellektga asoslangan tibbiy uskunalar xarid qilindi.

Yana bir yangilik, endilikda markazga imtiyozli bemorlar murojaatlarida navbatlar mavjud emas. Bu hududiy filiallar, qolaversa, shahar va tuman tibbiyot birlashmalarida yangi davolash hamda diagnostika usullari amaliyotga keng tatbiq qilinayotgani samarasidir.

“Xalq so‘zi”.

Mamlakatimizda yillik oltin qazib olish hajmi 2016-yildagiga nisbatan 26 tonna, kumush 77 tonna, mis 32 ming tonnaga oshgan.

To‘ra Sulaymon tavalludining 90 yilligi

QUYOSHGA INTILGAN SHOIR



Ayni kunlarda butun mamlakatimiz bo‘ylab O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-ma’rifiy anjumanlar o‘tkazilmoqda.

Mazkur tadbirlar doirasida shoir tug‘ilib o‘sgan Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi xonadonida To‘ra Sulaymon uy-muzeyining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Shu munosabat bilan bu yerda atoqli yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunos olimlar, ijodkorning yaqinlari, do‘stlari, shogirdlari, o‘quvchi-yoshlar, keng jamoatchilik vakillari jam bo‘ldi.



Shuningdek, ushbu maskanda To‘ra Sulaymon haykali ham tantanali ochildi.

Tadbirda adibning ibratli hayot va ijod yo‘li, ezgu fazilatlari, xotirasini abadiylashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so‘z yuritildi.

Uy-muzey qoshida kutubxona ham tashkil qilindi. Shoirning ijodiy ish qurollari, qo‘lyozmalari, maktublari, shaxsiy buyumlari muzeydan noyob eksponatlar sifatida joy oldi.

– Yurtimizda To‘ra Sulaymon asarlari kirib bormagan xonadon yo‘q, desak, mubolag‘a emas, – deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Sirdaryo viloyati bo‘limi rahbari vazifasini bajaruvchi Noriniso Qosimova. – Ko‘plab she’rlari xalqimiz sevib tinglaydigan qo‘shiqlarga aylangan. Xususan, “Umr o‘tmoqda”, “Bahor ketma, mening bog‘imdan”, “Gul bir yon, chaman bir yon”, “Topolmasman” singari taronalar bugungi kunda milliy musiqa san’ati durdonalari sanaladi. Shuni mamnuniyat bilan aytish lozimki, shoirning xalqimiz adabiy-ma’naviy xazinasiga qo‘shgan ana shunday ijodiy hissasi va ona yurtning fidoyi ijodkori sifatidagi ibratli faoliyati davlatimiz tomonidan yuksak e’tirof etilayotganidan ijodkorlar, adabiyot ixlosmandlari, To‘ra Sulaymon ijodi muxlislari va albatta, shoirning yaqinlari minnatdorligini izhor qilishayotir.

Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida “Quyoshga intilgan shoir” deb nomlangan adabiy-ma’rifiy anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda so‘zga chiqqanlar To‘ra Sulaymon ijodining yosh avlodni ona yurtga yanada mehr-muhabbatli va sadoqatli qilib tarbiyalashda hamda ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda munosib o‘rni borligini alohida ta’kidlashdi.

To‘ra Sulaymon tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar mamlakatimiz hududlarida davom etmoqda.

Ahmadali ShERNAZAROV
(“Xalq so‘zi”).

“TIMSS – 2023:”

O‘ZBEKISTONNING XALQARO REYTINGDAGI O‘RNI E’LON QILINDI



Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan “TIMSS – 2023” xalqaro baholash dasturi natijalari e’lon qilindi. Bu haqda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi axborot berdi.

Tadqiqot

Unga ko‘ra, o‘tgan yil aprel-may oylarida O‘zbekistonda o‘tkazilgan ushbu tadqiqotda barcha hududdan tanlab olingan 166 ta maktabdan jami 8 ming 800 nafar o‘quvchi (shundan 4 ming 450 nafari 4-sinf hamda 4 ming 350 nafari 8-sinf) qatnashgan.

Shuningdek, mazkur maktablarning 166 nafar direktori hamda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha 1 ming 35 nafar o‘qituvchi so‘rovnomalarda ishtirok etgan.

Xalqaro hisobot tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistondagi 8-sinf o‘quvchilarining matematik savodxonlik bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi 421 ball bo‘lib, qatnashuvchi 44 ta davlat o‘rtasida 32-o‘rinni egallagan. Shuningdek, 8-sinf tabiiy fanlar (Science) savodxonligi bo‘yicha qatnashgan 44 ta davlat orasidan 396 ball bilan 39-o‘rinni ishg‘ol qildi.

Tadqiqotda qatnashgan o‘zbekistonlik 4-sinf o‘quvchilari tabiiy fanlar (Science) savodxonligi bo‘yicha 412 ball to‘plagan va ishtirokchi 58 ta davlat orasida 54-o‘rinni egalladi. Matematika savodxonligi bo‘yicha esa qatnashuvchi 58 ta davlat o‘rtasida 443 ball bilan 50-o‘rinni zabt etdi.

O‘zbekistonda 4-sinflardagi qizlar (446 ball) matematika yo‘nalishida o‘g‘il bolalardan (440 ball) yaxshiroq natijaga erishgan bo‘lsa, tabiiy fanlar yo‘nalishida ham xuddi shunday farq saqlanib qolgan (qizlar 414 ball, o‘g‘il bolalar 409 ball).

Tabiiy fanlar yo‘nalishida 8-sinflardagi qizlar (395 ball) va o‘g‘il bolalar (396 ball) deyarli bir xil natija ko‘rsatgan bo‘lsa, matematika yo‘nalishida o‘g‘il bolalar (426 ball) qizlardan (416 ball) ko‘ra yuqoriroq natija qayd etgan.

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston ushbu tadqiqotda ilk marotaba qatnashdi.

“Xalq so‘zi”.

XITOYDA O‘ZBEKISTON TURIZM YILI



Pekin shahrida “Xitoyda O‘zbekiston turizm yili”ning rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbir mamlakatimiz elchixonasi, O‘zbekiston Turizm qo‘mitasi, Xitoy Madaniyat va turizm vazirligi hamda Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) hamkorligida tashkil etildi.

Biz va jahon

Tantanali marosimda Xitoyning turli vazirlik va idoralari, yirik sayyohlik kompaniyalari, madaniyat tashkilotlari, OAV vakillari va blogerlar qatnashdi.

Ishtirokchilarga so‘nggi yillarda O‘zbekistonda sayyohlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xorijiy turistlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar, mamlakatimizning turizm salohiyati va imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumot berildi.

Xitoy madaniyat va turizm vaziri o‘rinbosari Lu Inchuan O‘zbekiston Xitoy fuqarolari uchun jozibali sayyohlik maskaniga aylanib borayotganini ta’kidladi.

UNWTO bosh kotibi Zurab Polikashvili o‘z nutqida



O‘zbekiston yuksak turizm salohiyatiga ega mamlakat ekanini alohida urg‘ulab, UNWTO sayyohlik sohasida O‘zbekiston bilan yaqindan hamkorlikni faol davom ettirishini aytdi.

Tadbir davomida, shuningdek, turizm va investitsiyalar bo‘yicha biznes forumi, taqdimotlar va “B2B” uchrashuvlari o‘tkazildi.

Mehmonlar e’tiboriga O‘zbekiston san’at ustalari ishtirokida konsert dasturi namoyish etildi. Shuningdek, ishtirokchilar milliy taomlarimizdan bahramand bo‘ldi.

“Xitoyda O‘zbekiston turizm yili” doirasida Pekin, Shanxay, Guanchjou, Xanchjou, Sian, Tyanszin, Shenchjen, Chendu va boshqa ko‘plab shaharlarda turli madaniy, turistik va iqtisodiy tadbirlar, mediaturlar, sayyohlik kompaniyalari tashriflari, ommaviy axborot vositalarida turkum maqola va ko‘rsatuvlar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Eslatib o‘tamiz, 2024-yil 1-dekabr kuni O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov va Xitoy tashqi ishlar vaziri Van I o‘zaro vizadan ozod qilish to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimni imzoladi.

Bitimga muvofiq O‘zbekiston va Xitoy fuqarolari ikki davlat hududlariga kirish, undan chiqish yoki tranzit uchun 30 kungacha muddatga viza talablaridan ozod qilinadi.

Mazkur xalqaro shartnoma tomonlar zarur bo‘lgan davlat ichki tartib-taomillarini bajarganidan so‘ng kuchga kiradi.

“Dunyo” AA.
Pekin



Isroil Madrimov WBC kamari uchun jang o‘tkazadi

2025-yilning 22-fevral kuni Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida professional boks oqshomi o‘tkaziladi.

Unda birinchi o‘rta vazn toifasidagi bokschimiz Isroil Madrimov ringga ko‘tarilishi rejalashtirilgan. 29 yoshli Isroil amerikalik charm qo‘lqop ustasi, vaqtinchalik WBC Interim kamari sohibi Verjil Ortis bilan to‘qnash keladi.

E’tiborlisi, I. Madrimov hozirgi kunga qadar WBC kamari uchun jang qilgan ilk o‘zbekistonlik bokschiga aylanadi. Hamyurtlarimiz shu paytgacha WBCning chempionlik kamarlari uchun jangda ishtirok etmagan.

Ma’lumot o‘rnida aytish joiz, Isroil Madrimov Verjil Ortis bilan bahsdan oldin 21-dekabr kuni ukrainalik Sergey Bogachuk bilan bahslashadi.

Shaxmatchilarimiz nufuzli turnirda qatnashmoqda

Kuni kecha Qatar poytaxti Doha shahrida shaxmat bo‘yicha nufuzli musobaqa start oldi.



Mukofot jamg‘armasi 94 200 AQSH dollarini tashkil qiluvchi “Qatar Masters” turnirida 53 nafar o‘zbekistonlik shaxmatchi “A” va “V” guruhlarida bahslarga kirishadi. Kuchlilar yig‘ilgan “Open” bahslarida 15 nafar shaxmatchimiz sovrinli o‘rinlar uchun kurashyapti.

Turnirda ikkinchi raqam ostida tasniflangan Nodirbek Abdusattorov, afsuski, ilk davradayoq mag‘lubiyat alamini totdi. Grossmeysterimiz oq donalarda o‘ynashiga qaramay eronlik Reza Mahdaviga imkoniyatni boy berib qo‘ydi.

Nodirbek Yaqubboyev ham 1-turdayoq hindistonlik Amit Moksh Doshiga yutqazib qo‘ydi. Shamsiddin Vohidov musobaqa startida qora donalarda o‘ynab, vyetnamlik Le Pam Nguyendan ustun keldi. Yoshlar o‘rtasida jahon chempioni Afro‘za Hamdamova qora donalarda harakat qilganiga qaramay italiyalik grossmeyster Lorenso Lodikini mag‘lub eta oldi.

Kuchlilar guruhida qatnashayotgan hamyurtlarimizdan Bahrom Bahrillayev, Abdumalik Abdusalimov, Muhiddin Madaminov, Saidakbar Saidaliyev, Muhammadzohid Suyarov, Humoyun Begmuratov, Almas Rahmatullayev raqiblari bilan durangga rozi bo‘ldi.

Musobaqa 13-dekabr kuni yakunlanadi.

Ikki musobaqa uchun tarkib ma’lum

Taekvondo WT bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi navbatdagi xalqaro musobaqada ishtirok etish uchun Xitoyning Usi shahriga yetib bordi.



Bu haqda O‘zbekiston taekvondo assotsiatsiyasi xabar berdi.

Mazkur shahar 7 – 10-dekabr kunlari “Katta dubulg‘a Chellenjer” va aralash jamoaviy dasturdagi jahon kubogi final bosqichiga mezbonlik qiladi.

“Katta dubulg‘a Chellenjer” turnirida g‘olib va kumush medal sohiblari 2026-yilda o‘tkaziladigan “Katta dubulg‘a” final bosqichiga yo‘llanma oladi.

Ushbu ikki musobaqada Pavel Xan va Aleksandr Kim murabbiyligidagi O‘zbekiston milliy terma jamoasi quyidagi tarkibda ishtirok etadi: O. Otajonov (58 kg.), D. To‘xliboyev (68 kg.), N. Qosimxojiyev (68 kg.), J. Jaysunov (80 kg.), M. To‘xtasinboyev (80 kg.), Sh. Salayev (+80 kg.), F. Sodiqova (67 kg.), G. Alijonova (+67 kg.)

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq so‘zi”) tayyorladi.

REKLAMA

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHINI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA XABAR

Jamiyatning nomi: “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati.

Joylashgan joyi: 100084, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Amir Temur shohko‘chasi, 101-uy.

Elektron pochta manzillari: info@nbu.uz, webmaster@nbu.uz

Umumiy yig‘ilish o‘tkazish sanasi va manzili: 2024-yil 26-dekabr, soat 11:00. Toshkent shahri, Amir Temur shohko‘chasi, 101-uy.

Aksiyadorlarning reestri shakllantiriladigan sana: 2024-yil 20-dekabr.

Kun tartibiga kiritilgan masalalar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;
2. Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;
3. Jamiyatning 2024-yil birinchi yarim yilligi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari bo‘yicha tashqi auditorlik xulosasini ko‘rib chiqish va 2024-yil birinchi yarim yildagi faoliyati natijalari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash.
4. “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil birinchi yarim yillik yakunlari bo‘yicha sof foydasini taqsimlash.

Dala chetini samarali ishlatgan fermerlarga tadbirkorlar reytingida qo‘shimcha ball hisoblanadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Norqulov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.50 Topshirildi — 01.05 1 2 3 4 5 6